

**O'ZBEK XALK MUSIQA IJODINING KEYINGI YILLARDAGI TARAQQIYOT
YO'LLARI.**

Qo'shayev Ilhom Axtamovich

BDPI musiqa va tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

Tojiyeva Nigora Mirxonovna

BDPI musiqa va tasviriy san'at kafedrası 1-MUZ-22 guruh talabasi

Annotasiya

Maqolada O'zbek xalqining og'zaki an'alaridagi kasbiy musiqasi, ayniqsa maqom yo'llari, rang-barang murakkab doyra usullari va boshqa milliy musiqa sozlarda ijro etilgan asarlarhig buyukligi, bu esa sozanda va xonandalardan yuksak ijro mahoratini talab etishi. Xonanda xushovoz bo'lishidan tashqari, kuchli xotira, she'riyatdan xabardorligi hamda o'ta qobiliyatli bo'lmog'i lozimligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maqom, xonanda, xushovoz, mahalliylik, mavrigi, lazgi, moddiy, doyra, katta ashula, tanbur, dutor, husayniy.

Musika ilmidan mukammal bilim berish, kadim-kadim zamonlardan ya'ni eramizdan oldin kadimgi shark mamlakatlarida boshlangan. Xitoy, Xindiston va Yunoniston kabi mamlakatlarda miloddan oldin xam professional musiqa maktablari mavjud bo'lgan. O'rta asrlarga kelib Ovropaning turli joylarida xam musiqa bilimgoxlari vujudga kela boshladi. Bu bilimgoxlar katolik cherkovlariga xizmat qiladigan xor va mashshoqlarning professional maktablari edi.

Xalk musiqa san'atining rivojlanishi, xalq teatr va orkestrlarining ko'payishi munosabati bilan dunyoviy musiqa ta'limi kengaydi, turli musiqa maktablari, musiqa-cholg'uchilar ustaxonalari tashkil topdi. XVII-asrga kelib g'arbiy Ovropa mamlakatlari, jumladan, Italiya Fransiya kabi mamlakatlarda oliy musiqa bilimgoxlari konservatoriyalar ochildi.

XVIII asrdan boshlab esa Rossiyada xam musiqa bilimgoxlari tashkil topa boshladi. 1862 yilda Peterburgda, 1866 yilda esa Maskvada konservatoriyalar ochildi. Bu oliy musiqa dargoxlarida rus va jaxon musika ma'daniyatining ulug' arboblari Chaykovskiy, Rimskiy-Korsokov, Shostokovich va boshqalar yetishib chiqdi.

XIX-XX asrlarda Rossiya mustamlakasi bo'lgan xalklar musiqasi ham rus musiqasi tasirida bo'ladi. Inkilobdan so'ng Rossiyada musiqa ta'limining quydagi davlat tuzimi borpo etildi. 7 yillik boshlang'ich musiqa maktablari, o'rta ma'lumotli musiqachi kadrlar tayyorlaydigan 4 yillik musiqa bilim yurtlar, oliy ilmgohlar qoshida 11 yillik masus musiqa maktablari, oliy o'quv yurtlari- konservatoriyalar va ular huzurida aspiranturalar.

Boshlang'ich musiqa maktablarining maqsadi bolalarda musiqaga hafas uyg'otish, ularni biror cholg'u asbobida chalishga o'rgatish, musiqa nazariyasidan dastlabki bilim berishdan iborat. Qobilyatli o'quvchilar musiqa bilim yurtlariga kirib musiqa malumotlarini davom ettiradilar. Oliy o'quv yurtlari xuzuridagi o'rta maxsus musiqa maktablarida musiqaga o'ta qobiliyatli bolalar o'qiydi.

Musiqa bilim yurtini tugatgan iste'dodli o'quvchilar konkurs orqali oliy ilmgohlarga qabul qilinadi. Musiqa oliy o'quv yurtlari musiqa ta'limining barcha ixtisoslari bo'yicha oliy malumotli mutaxassislar tayyorlaydi.

Shuningdek, mamlakatimizda turli umumiy ta'lim musiqa maktablari bolalar filormoniyalari, xor studiyalari, xalq universitetlari kulublari va ular huzuridagi xilma-xil badiiy kollektivlar xalqimizni musiqiy estetik tarbiyalashda xizmat qiladi.

O'zbekistonda musiqa ta'limi tarixiy taraqqiyotiga bir nazar soladigan bo'lsak, kadimgi sivilizatsiyaning beshiklaridan biri bo'lgan o'rta osiyoning yuragi bo'lmish O'zbekistonda boshqa barcha fanlardek musiqa san'ati ham qadimdan rivojlangan. Buni ajdotlardan bizga meros bo'lib qolgan ulkan musiqa merosimiz tasdiqlaydi. Xalqimizning musiqa san'ati yodgorliklari to bizning kunlargacha mukammal yetib kelishida xalqimizning muqaddas an'analari qo'l kelgan. Bu an'ana, biror soxaning mutaxassisi bo'lgan kishi o'sha soxani mukammal egallashi va o'zi ham uni boyitish, keyinchalik uni o'z farzandlari hamda shogitlariga mukammal o'rgatishi ya'ni uni ishonchli qo'llarga topshirib ketishi an'anasi bo'lgan. Nota yozuvini bilmagan ota - bobolarimiz ana shunday yul bilan o'z musiqa san'atlarini kelajak uchun asrab-avaylaganlar. O'zbek xalqining asrdan- asrga, avloddan-avlrodga o'tib, rivojlanib kelgan ulug' san'at merosi ashula-ko'shiq ijrochilik yullari, cholg'u ijrochilik yo'llari, xalq og'zaki qo'shiq-dostonchilik yullari, xalq rivoyatchilik va ertakchilik yullari kirgan.

Bundan tashkari yuksak qur'on qroatxonligi, yetuk azonchilik va badixa maddoxliklar ham san'atning ajralmas qismlari xisoblanadi.

Qadimgi O'zbekiston shaharlarida san'atkorlar ixtiyoriy guruhlarga uyushib faoliyat ko'rsatishgan. Ba'zi katta shaharlarda bunday guruhlar bir nechta bo'lgan. Bu guruxlar faqat xonanda va sozandalardan iborat bo'lmay, balki ularning orasida qiziqchilar va qo'g'irchoqbozlar ham bo'lishgan. Ibratli tamoni shundaki, bu guruxlar san'atning turli janrlari bo'yicha o'zaro musobaqa olib borishgan va bir-birlarini rag'batlantirib, boyitib borishgan. Bu guruhlarning boshida elu yurtga tanilgan ustoz san'atkorlar turgan. Ayniqsa bu guruxlar o'zaro uyushtirib turadigan maqomxonlik ko'riklari yuksak mahorat maktabi vazifasini o'tgan. Bunda ma'lum bir guruh kunning ma'lum bir soatigacha maqomning ma'lum bir qismini ijro etgan, navbatdagi gurux esa ular to'xtagan joydan davom ettirib ketavergan, shunday qilib, maqomxonlik bir necha kunlab davom etgan.

Qadimgi O'zbek san'atkorlari o'z san'atini choyxonalarda, maydonlarda dorbozlik uyinlarida, xalk sayillarida nomoyish qilgan. Bundan tashkari shoxlar va amirlar saroylarida ham eng sara musiqachilar xizmat qilishgan.

Ular zamonasining yetuk shoirlari tomonidan yaratilgan sara she'rlarga kuylar bastalaganlar va ijro qilganlar Qadimda ijrochilik mohoratining cho'qqisiga chiqqan o'zbek san'atkorlari o'z san'at maktablarini yaratishga xarakat qilishgan, buning uchun ular xalq orasida eng iste'dodli ug'il bolalarni tanlab olib yakka tartibda o'z mahoratlarini o'rgatishgan. Bunday shogirdlar bir ikkitadan oshmagan, ular 10-15 yillab o'z ustozlaridan ajralmay ular mahoratining ipidan ignasigacha o'rganishgan. Shunday qilib, bu ustoz shogirdlikning an'anaviy zanjiri avloddan-avlodga o'tib, ulanib kelovergan. Shuning uchun O'zbek moqomchiligining , Buxoro, Xorazm , Fargona -Toshkent, yullari xam, O'zbek dostonchiligining Samarkad, Surxondaryo – Qashqadaryo yo'llari ham, qo'shikchilik va cholg'uchilikning Buxoro – Samarqand , Xorazm va Fargona-Toshkent, yo'llari ham omon eson bizning kunlarga yetib kelgan.

Musiqqa ilmi allomalari IX asrdan boshlab bu fan sohasi haqidagi o'z ilmiy qarashlarini va muloxozalarini katta traktatlar va risolalarda yozib qoldirishgan. Musiqqa ilmiy nazariyasi va amalyotining ilk bosh kitoblarini yaratgan olimlarning boshida bobokolonimiz Muxammad Farobiy turadilar. Farobiyning «Kitob al-musika al Kabr » ya'ni «Ulug musika kitobi», «Kitob fi – l musiqqa» ya'na «Musika xakida kitob» va nixoyat uning asosiy mexnati singgan «Kitob fikso-al ulum va atta'rif» ya'ni «Fanlarni sinflashtirish kitobi»da musiqaning o'ziga xos xususiyatlari keng va chuqur yoritiladi. Bu nodir asarlar kiyingi avlod olimlarining musiqaning yangi va yangi qirralarini tadqiq qilishi uchun kalit vazifasini o'tagan. Bundan tashkari, Amir Temur huzurida yashagan mashxur musiqachi va bastakor Abdulqodir

Marog'iy ham musiqa haqida katta traktat yozib qoldirgan. O'rta Osiyoning mashhur shoirlari Abduraxmon Jomiy va alisher Navoiyning ham musiqa risolalari musiqa ilmi durdonalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 2018 yil 1 noyabrdagi PQ-3990-son qarori.

2. "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22 noyabrdagi 946-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xaqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O'zbekiston ovozi 2019-yil, 8- aprel. № 28-29 (32. 519).

4.Akhtamovich K. I. the content of education aimed at methodological improvement of the study of traditional musical heritage *Academicia Globe:Inderscience Research*2022– T.3№.01–C.13-15.

5.Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании // *Science and Education*. 2022. Т. 3. - № 1. - С. 893-898.

6. Кушаев.И.А. Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» *ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020*Ст. 59-62,

7.Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» *ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021*

8.И.А.Kushayev «Musical pedagogical fundamentals of doston art» *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 2020/10/10. 1061-1067

9.Qo'shayev I.A. "Baxshichilik festivallarining musiqiy ta'limdagi o'rni" *МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИУ Илимий-методикалык журнал* 2023 5/3 сан Нөкис *noyabr* В.233-238.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Kushayev Ixom Axtamovich, o'qituvchi, **Tojiyeva Nigora Mirxonovna**, talaba
[Кушаев Илхом Ахтамович, преподаватель **Тожиева Нигора Мирхоновна** студентка], [Ихом А.Кushayev, teacher, **Nigora M.Tojiyeva**, student]; manzil: O'zbekiston, 117036, Вухоро, Sherbudin ko'chasi, 2-muyilish 4-xoha [адрес: Узбекистан, 117036, Бухара, улица Шербудин проезд-2. дом-4], [address: Uzbekistan, 117036, Bukhara, Sherbudin street passage-2.house-4.]; ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9092-5020>; kushaev.1968@gmail.com manzil: